

# O'SMIRLIK DAVRI AVTONOMIYALARI VA PSIXOLOGIK QIYOFASIDA YOLG'IZLIK HISSI NAMOYON BO'LISHINING XUSUSIYATLARI

**Abduvalieva Nilufar Ne'matulla qizi, 2-bosqich magistri**  
**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Annotatsiya:**Maqolada o'smirlik davrida kuzatiladigan o'smirlik avtonomiyasi holati, o'smirlik avtonomiyasining huquqiy avtonomiya, emotsional avtonomiya, makoniy avtonomiya kabi turlari haqida, o'smirlar psixologik qiyofasida yolg'izlik hissi namoyon bo'lishining xususiyatlari to'g'risida fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Tayanch so'z va tushunchalar:** o'smirlik davri, avtonomiya, inqiroz davri, huquqiy avtonomiya, emotsional avtonomiya, makoniy avtonomiya, yolg'izlik hissi.

O'smirlik davri insonni bolalikdan - yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin.

O'smirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «o'tish davri», «og'ir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning «og'irligi», «keskinligi», «murakkabligi» tufayli uni og'ir, murakkab davr ekanligi, bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o'zgarishi reallik hisoblanadi. Bu davrda o'smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil an'analar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola endi «bola» emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan bo'lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo'nalganligi qaytadan shakllanadi, o'z-o'zini anglashi, baholashi, qadriyatlari o'zgaradi. Uning uchun o'z «men»i va shu «men»ning ahamiyati ortadi.

Zamonaviy o'smirlar hozirgi kunda ijtimoiy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy, ichki va tashqi xarakterdagi murakkab beqarorlikka yuz tutgan globallashuv xodisalari sharoiti ta'sirida ularning aksariyati bevosita yolg'izlana boshlaydilar. O'smirlik yoshi davrini psixolog, sotsiolog I.S.Kon, bu davr aqliy xususiyatlarni tavsiflovchi, ijtimoiylashuvning yuqori cho'qqisi hisoblanuvchi, aqliy funktsiyalarning rivojlanishi, shaxsni shakllantirish davri, deb ataydi [48]. O'smirlik davridagi yolg'izlik o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Bu yoshda cheklanish va yolg'izlik ichki, shaxsiy psixologik jarayon emas, balki ularning o'z hayotiga bo'lgan munosabatlari xususiyatidir, deb tushunish mumkin. I.S.Kon, yolg'izlikni – yoshlikka xos xususiyat, jiddiylik, ruhiy jihatdan moyillik, deb ta'kidlaydi [48]. U o'z ichki dunyosida juda muhim, quvonchli hodisa, ayni damda

ko'plab tashvishli holatni keltirib chiqaradi. O'zining betakrorligi, g'aroyibligini his qilish, anglash yolg'izlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu yoshda ko'pincha ichki hislarning bo'shab qolishini nima bilandir to'ldirish ehtiyoji paydo bo'ladi. Natijada muloqotga ehtiyoj, muloqot ob'ektining tanlanganligi, yolg'iz qolishga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi kuzatiladi. Bulardan tashqari "yolg'izlik" va "begonalashish" tushunchalarining mazmun-mohiyati haqidagi tasavvurlar ham o'zgarib boradi va bu holatni jismoniy holat deb baholasalar, ba'zilar bu tushunchalarni boshqacharoq anglaydilar. Yuzaga keladigan yolg'izlik holati qanday sababga ko'ra paydo bo'lganligidan qat'iy nazar bu holatni o'smirlarning o'zlari qanday baholashlari, undan qanday foydalana olishlari muhim ahamiyatga ega. Yolg'izlik holatidan samarali foydalanish salbiy tasavvurlarni bartaraf etadi.

Krizisning rivojlanishi, o'z-o'zini anglash zarurati XXI asrda o'smirlar orasida yolg'izlik muammosini dolzarblashtirmoqda.

O'smirlik davrining xarakterli xususiyatlaridan biri - bu davrda ularda kuzatiladigan o'smirlik avtonomiyasi holatidir. O'smirlik avtonomiyasining huquqiy avtonomiya, emotsional avtonomiya, makoniy avtonomiya kabi turlari farqlanadi.

O'smirlik davrida esa bola o'z hayotini, xavfsizligini ta'minlash borasida nisbatan mustaqillikka erishadi. Endi u o'zini o'zi himoya qila olishi, lozim bo'lsa o'zi o'z imkoniyatlari darajasida mehnat qilib, o'z ehtiyojlarini mustaqil ravishda o'zi qondira olishi mumkin bo'ladi.

Huquqiy avtonomiya ayni vaqtda unga bir qator huquqiy imkoniyatlar berilishi bilan xarakterlanadi. O'z xatti-harakatiga mos huquqiy imkoniyatlarga ega bo'lish va bundan o'smirning xabardorligi uning huquqiy avtonomiyasining yuzaga kelishini ta'minlaydi. Bunday avtonomiyaga ega bo'lish o'smirda o'z xatti-harakati uchun javobgarlik, mas'uliyatlilik hissini yuzaga keltiradi.

O'smirlik avtonomiyalaridan yana biri-emotsional avtonomiyadir. Ma'lumki bola dunyoga kelgan ondan boshlab u onasi va atrofidaqilarning emotsional, hissiy qo'llab-quvvatlashiga, mehr-muhabbatini namoyon qilishiga, erkalashiga ehtiyoj his qiladi.

O'smirlik davrida o'smir endi «yosh bola» emas, endi u «katta odam» katta odam esa mustaqil bo'lishi, o'z muammolarini o'zi hal qilishi kerak. Bu davrda kattalar yordamiga murojaat qilish tengdoshlar tomonidan qoralanadi. Va buni o'smirning o'zi ham xohlamaydi. Bu davrda o'smirlarga kattalar tomonidan oldingidek ko'rsatiladigan iltifot, erkalashlar erish tuyuladi. Endi ular o'zlarini erkalab, silab siypashlarini, «arzimagan narsalar» uchun kattalar tomonidan bildiriladigan olqishlarni «yoqtirmaydi». Endi ular atrofdagilarni hissiy qo'llab-quvvatlashlaridan holiroq bo'lishga, o'z muammolarini o'zlari shaxsan hal qilishga intiladilar. Oldinlari ko'chada, bog'chada, maktabda yuz bergan voqealar haqida uyidaqilarga shikoyat qilib ota-onasidan yordam so'ragan bo'lsalar, endi oiladan tashqarida biron-tasidan dakki eshitib, kaltak yeb kelgan taqdirda ham bu haqda ota-onasiga bildirmaslikka harakat qiladi va imkon qadar ota-onalarini uning «ishlariga» aralashmasliklarini xohlaydi. Bularning barchasi o'smirlarda bevosita kuzatiladigan emotsional avtonomiyaning ta'siridir.

O'smirlarda kuzatiladigan avtonomiya holatining yana biri makoniy avtonomiyadir. Bunga ko'ra o'smirlar imkon qadar o'z xonasida yolg'iz qolishga, biron bir ishni bajarayotgan yoki biron bir joyda bo'lgan vaqtlarida imkon qadar yolg'iz bo'lishga ayniqsa o'z ota-onasi, oila a'zolari nazaridan chetroqda bo'lishga, o'z o'y hayollari bilan mashg'ul bo'lib vaqt o'tkazishga intilib qoladi. Suhbatlashsa ham asosan o'z tengdoshlari, yaqin o'rtoqlari bilangina muloqotda bo'lib o'z ota-onasi bilan imkon qadar kamroq muloqotda bo'lishga intilib o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoladi. Ayni vaqtda o'smirda kuzatilayotgan bu hodisalarning asl sababini tushunmagan ayrim ota-onalar ularning bunday holatidan xavotirlanib, ular bilan oldingiga qaraganda qo'proq qiziqib qoladilar. Boshqacha qilib aytganda ularning avtonomiyasiga «bostirib kiradilar». Buni esa o'smirlar yoqtirmaydi. Bunday holatlar o'smirlar va ularning ota-onalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarida kelishmovchiliklar, nizolarning yuzaga kelishiga asos bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlarda ichki begonalashuv kuchliroqdir. Muloqotdagi uquvsizlik yolg'izlik hissini keltirib chiqaruvchi omillardan biridir. O'smirlarda muloqotchanlikning ortishi, ularni boshqalarning tushunishi va qabul qilishining ortishiga, aksincha, muloqotchanlik kamayishi esa ularda yolg'izlik hissi ortishiga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mullaboeva N.SH., O'smirlarda yolg'izlik hissi shakllanishining psixoprofilaktikasi va psixokorreksiyasi. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 19.00.06 / Mullaboeva Nargiza SHaropaliyeva. – Toshkent, 2019. – 53 b.
2. Artamonova, A.A. Perejivanie odinochestva kak faktor razvitiya lichnostnogo potentsiala studentov-pervokursnikov: dis. ... kand. psixol. nauk: 19.00.01 / Artamonova Alla Anatolievna. - M., 2008. - 167 s.
3. Buyanov, M.I. Ot odinochestva k obshchenu ili kontaktologiya / M.I.Buyanov. - M., 1998. - 120 s.
4. Nasiba Jumanova, TSELI I ZADACHI AKTIVATSII, USKORENIYA PEDAGOGICHESKIX TEXNOLOGIY, Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii: Tom 1 № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
5. Jumanova, N. (2021). PROFILAKTIKA PSIXOLOGICHESKIX DEFEKTOV V RAZVITII LICHNOSTI. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 1(1). izvlecheno ot <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1365>
6. Jumanova, N. (2021). XARAKTERISTIKI PROBUJDENIYA STARSHEY GRUPPY DETEY LYUBOVY K LITERATURE. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 1(1). izvlecheno ot <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366>
7. Jumanova, N. (2020). AKTUAL'NYE VYZOVY SOVREMENNOY NAUKI. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.

8. Obidova, D., & Nasiba, J. ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF HEALTH CARE INSTITUTIONS: PROSPECTS FOR THE APPLICATION OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE.
9. Atamurodova, R. K., Jumanova, N. SH., & Alimkulov, S. O. U. (2016). Vzglyady uchyonykh srednevekov'ya o dushe cheloveka. *Problemy pedagogiki*, (8 (19)).
10. Sherboevna, N. J. (2020). THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE CULTIVATION OF CHILDREN'S SPEECH IN PRESCHOOL EDUCATION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(2).
11. Jumanova, N. (2023). O'SMIRLARDA STRESSNING PAYDO BO'LISHI VA UNING OLDINI O'LISH VA BARTARAF ETISH USULLARI. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, 3(2). izvlecheno ot <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8332>
12. Jumanova, N., & Hamidova, M. (2023). O'QUVCHILARINING O'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, 3(2). izvlecheno ot <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8338>
13. Jumanova, N., & Hamidova, M. (2023). O'QUVCHILARINING O'QUV FAOLIYATI JARAYONIDA KASBIY MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISH. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, 3(2). izvlecheno ot <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8343>
14. Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. *Open Access Repository*, 4(2), 500-505.
15. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2).
16. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA-OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).
17. Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.
18. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA O 'ZINI-O 'ZI ANGLASHDA OILANING ROLI. In *E Conference Zone* (pp. 11-16).
19. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). PROFESSIONAL MOTIVATION AND ITS STRUCTURE IN THE MANAGEMENT PROCESS. In *E Conference Zone* (pp. 11-16).
20. Madina, A., & Lobar, R. (2023). HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 375-379.

- 21.Madina, A., & Donoxon, M. (2023). OILADA YOSHLARNI TOLERANT MADANIYATLI QILIB TARBIYALASH VA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 353-358.
- 22.Madina, A. (2023). BOLALARDA AHLOQIY FAZILATLARNI PSIXOLOGIK SHAKLLANTIRISH USULLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 340-345.
- 23.Shamsidinovna, A. M. (2023, May). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA 12.AHLOQIY JIHLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI. In *E Conference Zone* (pp. 6-12).
- 24.Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O'QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI. In *E Conference Zone* (pp. 1-5).
- 25.Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O 'TISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O 'SMIRLAR KELIB CHIQUISHIGA TA'SIRI. The edition is included into Russian Science Citation Index., 77.
- 26.Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. Общество и инновации. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>.
- 27.Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 658-662.
- 28.Norbekova, B. (2022). O'roqboyeva M. Maktabgacha ta 'limda psixologik xizmatni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 481-483.
- 29.Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10 (90), 24-26. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>
- 30.Alibekov D. SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYa SISTEMY OBRAZOVANIYa //Jurnal muzyki i iskusstva. – 2021. – T. 2. – №. 2.
- 20.Farsakhanova, Dilafruz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." *Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI* (2020).
- 31.Alibekov, Davron. "Sharq mutafakirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari." *Jurnal muzyki i iskusstva* 2.1 (2021).
- 32.Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA'LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7730>
- 33.Alibekov, D. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TA'LIM TIZIMIGA INNOVATION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI. *Журнал*

Педагогика и психология в современном образовании, 3(3), 168-173.  
извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9137>